



KORRUPSIYAGA QARSHI XALQARO HAMKORLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Durimov Ro‘zimboy Jurabek o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistranti

e-mail: durimovrozimboy@gmail.com

ANNOTATSIYA: Hozirgi davrda davlatlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi xalqaro huquqiy hamkorlikka qiziqish ortib bormoqda chunki, korrupsiya nafaqat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, balki ijtimoiy munosabatlarga ham xavf soladigan omillardan biridir. Mazkur maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi, korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlikning nazariy-huquqiy masalalari oid ko‘pchilik davlatlar qo‘shilgan xalqaro va mintaqaviy korrupsiyaga qarshi konvensiyalar tahlil qilingan. Xususan, 2003 yildagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi” va boshqa bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro huquqiy hamkorligiga doir qonunchilik hujjatlari o‘rganilib, tahlil qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro hamkorligining nazariy-huquqiy masalalari o‘rganilishi yuzasidan xulosalar berildi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorligining nazariy-huquqiy masalalari.

АННОТАЦИЯ: В настоящее время растет интерес государств к международно-правовому сотрудничеству в борьбе с коррупцией поскольку коррупция является одним из факторов, угрожающих не только экономическому развитию страны, но и общественным отношениям. В данной статье



проанализированы международные и региональные антикоррупционные конвенции, к которым присоединилось большинство государств, касающиеся понятия коррупции, противодействия коррупции, теоретико-правовых вопросов международного антикоррупционного сотрудничества. В частности, были изучены и проанализированы "Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции 2003 года" и ряд других международно-правовых актов, а также законодательные акты, касающиеся международно-правового сотрудничества Республики Узбекистан в борьбе с коррупцией. Даны выводы по изучению теоретико-правовых вопросов международного сотрудничества в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: теоретико-правовые вопросы коррупции, противодействия коррупции, международного антикоррупционного сотрудничества.

ABSTRACT: Currently, the interest of States in international legal cooperation in the fight against corruption is growing, since corruption is one of the factors threatening not only the economic development of the country, but also public relations. This article analyzes international and regional anti-corruption conventions, to which the majority of states have acceded, concerning the concept of corruption, anti-corruption, theoretical and legal issues of international anti-corruption cooperation. In particular, the "United Nations Convention against Corruption of 2003" and a number of other international legal acts, as well as legislative acts related to international legal cooperation of the Republic of Uzbekistan in the fight against corruption, were studied and analyzed. Conclusions on the study of theoretical and legal issues of international cooperation in the fight against corruption are given.

Key words: theoretical and legal issues of corruption, anti-corruption, international anti-corruption cooperation.



KIRISH. Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida korrupsiya davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, siyosiy va ma'naviy yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan muammolaridan biri ekanligini aytib o'tishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"¹. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir, chunki korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mustaqillikning dastlabki davrlarida yetarlicha e'tibor berilmay kelingan ya'ni O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan boshlab 2016 yilga qadar bo'lgan davrda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati asosan mamlakatimizning bir qator xalqaro shartnomalarga qo'shilishi bilan xarakterlanib, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizm va standartlar ishlab chiqilmasdan, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonuniy tartibga solish masalalariga oid zarur chora-tadbirlar ko'rilmaganini aytib o'tishimiz mumkin. 2008 yil 7 iyuldagi O'RQ-158-sonli qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo'shilgan bo'lsa², 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturi a'zosiga aylangan.

Ikkinchi bosqichda esa Shavkat Mirziyoyev 2016 yil prezident bo'lib saylanganidan keyin O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik asoslari hamda huquq amaliyotining takomillashtirilishi bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishiga olib keldi. BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi" konvensiyasi normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha amaliy harakatlar amalga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis).

² O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/doks/1369505>.



oshirildi, xususan, korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi³ O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit tizimni ishlab chiqishning huquqiy asoslari yaratildi. 2017-yilning 3-yanvarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 419-sonli Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tartibga solinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asosi yaratildi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga ta’rif berilgan⁴ bo‘lib, unga ko‘ra, korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasidagi faoliyatning institutsional asoslari yaratildi jumladan, Oliy Majlisning har ikkala palatalarida ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘mitalar tashkil etildi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari belgilanib, ijrosi ta’minlandi⁵. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etildi⁶. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoniga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini

³ O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3088008>

⁵ Saidov, A. 2022. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 3–8. DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss1-pp3-8>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-4875784>



shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun ma'sul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan. Agentlikni asosiy vazifalaridan biri - korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imijini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR. Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlikning nazariy-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid tushunchalarni o'rganishdan boshlangan hamda korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlikning nazariy-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, xulosalar bilan yakunlangan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tizimli hamda qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, shuningdek, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tarixiy-huquqiy ma'lumotlarni tahlili kabi usullardan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorligining nazariy-huquqiy masalalariga oid tahlillar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT NATIJALARI. Bugungi kunga kelib korrupsiyaviy jinoyatlarning tahlili, ularni oldini olishda nafaqat milliy yondashuv ya'ni davlatlar o'zlari ishlab chiqqan korrupsiyaga qarshi kurash modeli asosida, balki xalqaro yondashuv ham dunyo hamjamiyati oldidagi eng muhim muommalaridan biri hisoblanib kelmoqda. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashda davlatlar o'rtasida nafaqat mintaqaviy hamkorliklar balki xalqaro darajada hamkorliklarni amalga oshirish yo'lga qo'yilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun 2015-yil 9-dekabr kuni butunjahon korrupsiyaga qarshi kurash kunida so'zlagan nutqida jumladan quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi. "Korrupsiya



va poraxoʻrlik oʻz maqsadiga yetib, tenglik va adolat barbod boʻlsa, butun jamoalar zarur infratuzilma, shifoxona va maktablarsiz qolishi mumkin. Bundan tashqari, korrupsiya muhim huquqiy masalalarning asosini buzadi, sanoatga zarar yetkazadi va raqobat tushunchasini yoʻqotadi”⁷ deya korrupsiyaga qarshi kurashda barcha davlatlarni birlikka va jipslashuvga chaqirgan edi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (OECD)⁸ “Poraxoʻrlikka qarshi konvensiyasi” bu iqtisodiy va siyosiy sohada xorijiy davlat amaldorlarining poraxoʻrliklarini jinoiy javobgarlikka tortish va xalqaro biznes operatsiyalarida poraxoʻrlik bilan kurashish standartlarini belgilashni oʻzining eng muhim vazifasi qilib olganligi bilan korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarini belgilab bergan deyishimiz mumkin. Ushbu OECDning 1997 yildagi Poraxoʻrlikka qarshi konvensiyasiga imzo chekuvchi har bir aʼzo mamlakatdan chet ellik poraxoʻrlikni jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonunchilikni qabul qilish va uni samarali tatbiq etishni talab etadi.

1999-yil 27-yanvarda Strastburg shahrida “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik toʻgʻrisidagi”⁹ konvensiya qabul qilingan boʻlib, ushbu konvensiya Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiya va poraxoʻrlik kabi jinoyatlarga qarshi muhim xalqaro huquqiy asosni yaratdiki, unda korrupsiya bilan bogʻliq jinoiy huquqbuzarliklarni, jumladan, poraxoʻrlik, taʼsir oʻtkazish va pul yuvish bilan bogʻliq jinoyatlarni belgilash orqali ham davlat, ham xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish va ularni bartaraf qilishga qaratilgan maqsad va vazifalarni oʻzida mujassamlashtirdi. Shuningdek, ushbu mintaqaviy hujjat korrupsiyaviy holatlarini tergov qilish va taʼqib qilishda xalqaro hamkorlikka yordam berishi bilan ham muhim deyishimiz mumkin. 2003 yil 11-iyul kuni Afrika Ittifoqi davlatlari Mozambik poytaxti Maputo shahrida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash boʻyicha “Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_korrupsiyaga_qarshi_kurashish_kuni

⁸ <https://www.oecd.org/corruption-integrity/>

⁹ Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik toʻgʻrisidagi konvensiya 1999-yil 27-yanvar Fransiya, Strasburg shahri <https://rm.coe.int/168007f3f5>



bo'yicha Afrika Ittifoqi konvensiyasi"¹⁰ ni qabul qilishdi. Ushbu mintaqaviy konvensiyaning qabul qilishdan quyidagicha maqsadlarni ko'zda tutishgan edi:

davlat mansabdor shaxslari va xususiy sektorda korrupsiya va ular bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, jazolash va bartaraf etish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, qonunchilik va chora-tadbirlarni uyg'unlashtirishdan iborat edi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu Afrika konvensiyasining mazmuni ilgari qabul qilingan hujjatlarning mazmuniga o'xshaydi Ushbu mintaqaviy hujjatni qabul qilinishida tashabbuskor davlatlar bo'lib Misr, Marokash va Jazoir davlatlari chiqishdi va korrupsiyaviy jinoyatlarni bartaraf qilishda Afrika modelini ishlab chiqishda muhim rol o'ynashdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Unda davlatlar va hukumatlar oldiga korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha milliy organlar va aktivlarni qaytarish mexanizmlarini yaratish vazifasi qo'yilganligi bilan muhim ham deyishimiz mumkin. 1996-yil 29-martda Karakasda shahrida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi Amerikalararo konvensiyasi"¹¹ nafaqat Amerika davlatlari tashkilotiga a'zo mamlakatlar hududida, balki korrupsiyaga qarshi kurashda global miqyosda yangi bosqich bo'ldi, chunki ushbu hujjat o'rganilayotgan masalalar bo'yicha birinchi konsolidatsiyalangan akt bo'ldi. Ushbu xalqaro hujjat o'z ichida bir qancha vazifalarni jumladan a'zo Amerika mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashda profilaktika choralari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni jinoiylashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik to'g'risidagi qoidalarini o'z ichiga oladi. Korrupsion jinoyatlar va ularga qarshi kurashda xalqaro doiradagi yondashuvni amalga oshirishda eng muhim tashkilot albatta Birlashgan Millatlar Tashkiloti bo'lib xizmat qilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgan vaqtlardan oq dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash olib borish, dunyo siyosiy elitesini korrupsiyaviy illatlardan

¹⁰African Union Convention on preventing and combating corruption. Available at: http://www.au.int/en/sites/default/files/AFRICAN_UNION_CONVENTION_PREVENTING_COMBATING_CORRUPTION.pdf

¹¹ INTER-AMERICAN CONVENTION AGAINST CORRUPTION (adopted at the third plenary session, held on march29,1996)https://www.eods.eu/library/OAS_Inter%20American%20Convention%20Against%20Corruption_1996_EN.pdf



tozalsh orqali dunyoda tinch va osoyishta hayotni barpo etish mumkin degan g'oyani ilgari surdi va buning uchun bir qancha ishlarni amalga oshirdi.

Jumladan, 2003-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi” (UNCAC) qabul qilingan. Ushbu hujjat korrupsiyaga qarshi kurash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim xalqaro shartnoma hisoblanadi va bugungi kunga qadar bir qancha davlatlar tomonidan qabul qilingan. UNCAC ya'ni konvensiyaning asosiy vazifalari etib a'zo davlatlar va ularda mavjud xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan birinchi huquqiy majburiy xalqaro hujjatdir. Majburiy degani shunda namoyon bo'ladiki, ya'niki har bir xalqaro huquq subyekti bo'lgan va BMT ga erkin a'zo bo'lib kirayotgan davlat albatta ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilishi va uning talablariga rioya qilishi majburiy qilib belgilab qo'yilgan. UNCAC Korrupsiyaga qarshi keng qamrovli chora-tadbirlarni qamrab oladi, jumladan, korrupsiyaning oldini olish, kriminallashtirish, xalqaro hamkorlik, aktivlarni qaytarish va texnik yordam. Konvensiya mamlakatlar uchun korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish bo'yicha o'z huquqiy asoslari, institutlari va amaliyotlarini mustahkamlash bo'yicha keng qamrovli ko'rsatmalarni belgilaydi.

Xususan, ushbu konvensiyaning IV-bobi xalqaro hamkorlik deb nomlangan bo'lib, davlatlar o'rtasidagi o'zaro huquqiy hamkorlik munosabatlarini tartibga soladi. Konvensiyaning 43-moddasi xalqaro hamkorlik deb nomlangan bo'lib, ishtirokchi davlatlar mazkur konvensiyaning 44-50 moddalariga muvofiq jinoiy-huquqiy masalalar bo'yicha hamkorlik qiladilar. Ishtirokchi davlatlar, agar bu maqsadga muvofiq bo'lsa va o'zlarining ichki qonunchilik tizimlariga to'g'ri kelsa, korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan fuqarolik-huquqiy va ma'muriy ishlarni tekshirish va amalga oshirish bo'yicha bir-birlariga ko'maklashish imkoniyatini ko'rib chiqishi belgilab o'tilgan. Endi esa O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorligining huquqiy masalalarini ko'rib chiqamiz. Bugungi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi qator



tashkilotlar bilan halqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan bo'lib¹², xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi; Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi (BMT TD); Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi (BMT GJB); Birlashgan Millatlar Tashkilotning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF); Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) O'zbekistondagi loyihalar koordinatori idorasi; Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti; Yevropa ittifoqi delegatsiyasi vakolatxonasi; Yevropa kengashi hamda AQSH Davlat departamentining narkotik moddalar va huquqni muhofaza qilish masalalari bo'yicha byurosi (INL); AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID); Jahon banki; Xalqaro valyuta jamg'armasi; Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki; Germaniyaning Konrad Adenauer nomidagi jamg'armasining O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi; Sloveniyaning "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilib kelmoqda. Xalqaro tashkilotlar ko'magida 3 ta O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihalari, 2 ta Vazirlar Mahkamasi loyihalari va boshqa hujjatlar, jumladan, Investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish metodologiyasi hamda O'zbekistonning korrupsiyani qabul qilish Milliy indeksi metodologiyasi loyihalari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida xalqaro hamkorlik doirasida 2020-2021-yillar davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan xalqaro hamkorlikka oid 8 ta memorandum hujjati imzolangan bo'lib¹³, xususan, 2020-yil 7-dekabr O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Konrad Adenauer nomidagi jamg'armaning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi o'rtasida Hamkorlik memorandum; 2021-yil 11-oktyabr Sloveniya

¹² <https://anticorruption.uz/ru/xalqaro-hamkorlik>

¹³ O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida 2021-yilgi milliy ma'ruza. <https://anticorruption.uz/storage/JpBf0mwDELlkEu06Uq6G9PgMv25RvRmetaNjI1MzFiMmM3MGNhZWE3MTYzNjA2MWY2Y2RiYzcyMGIwMjAzLnBkZg==-.pdf>



Respublikasi Korrupsiyani oldini olish komissiyasi va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasidagi Anglashuv memorandum; 2021-yil 28-oktyabr Agentlik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi xukumati tomonidan Buyuk Britaniyaning Toshkentdagi elchixonasi va Hukumatlararo Hamkorlik Xizmati o'rtasida hamkorlik o'rnatish yuzasidan Anglashuv memorandum;

2021-yil 17-noyabr Agentlik va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi Anglashuv memorandum; 2021-yil 18-noyabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv memorandumlari shular jumlasidandir. Korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash hamda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilgan.

2022 yilda Qozog'istonda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlat rahbarlari kengashi doirasida bo'lib o'tgan sammit doirasida MDH davlatlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish hamda hamkorlikning mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Bitim imzolandi¹⁴. Bitim ishtirokchi-davlatlar tomonidan muvofiqlashtirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini olib borish, qo'shma dastur va tadbirlarni amalga oshirish, sohaga oid ma'lumot almashish va targ'ibot ishlarida o'zaro hamkorlik qilish vazifalarini o'z ichiga olgan. Hujjat, shuningdek,

¹⁴ O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida 2022-yilgi milliy ma'ruza.<https://aca.uz/storage/un97w9pipG6Y6JPidQIyMu35xEpefqmetabWlsbGl5IG1hcnV6YS4xX2NvbXBvZXRhcnV6ZWQucGZm-.pdf>



korruptsiyaviy jinoyatlar bo'yicha ko'mak ko'rsatish, axborot tizimlarini yaratish, tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshirish hamda kadrlar malakasini oshirishda hamkorlik qilish yo'nalishlarini qamrab oladi.

XULOSA. Korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha quyidagi xulosalarni taqdim etishimiz mumkin: xalqaro hamkorlik - korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvda ma'lumotlar, tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni o'zaro almashish, hamda qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kabi elementlar muhim rol o'ynaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashda qonuniy va tartibga solish doirasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarur.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) ni korrupsiyaga qarshi konvensiyasi kabi xalqaro shartnomalarda xalqaro hamkorlik masalalari belgilab o'tilgan. Bu standartlar davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi majburiyatlarini belgilab beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalalarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Transparency International kabi xalqaro tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Ular davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi va muvofiqlashtirib boradi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);
2. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston



Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/doks/1369505>.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>

4. Saidov, A. 2022. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 3–8. DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss1-pp3-8>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-4875784>

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_korrupsiyaga_qarshi_kurashish_kuni;

7. <https://www.oecd.org/corruption-integrity/>;

8. Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi konvensiya 1999-yil 27-yanvar Fransiya, Strasburg shahri. <https://rm.coe.int/168007f3f5>

9. African Union Convention on preventing and combating corruption. Available at: http://www.au.int/en/sites/default/files/AFRICAN_UNION_CONVENTION_PREVENTING_COMBATING_CORRUPTION.pdf

10. INTER-AMERICAN CONVENTION AGAINST CORRUPTION (adopted at the third plenary session, held on march 29,1996) https://www.eods.eu/library/OAS_Inter%20American%20Convention%20Against%20Corruption_1996_EN.pdf

11. <https://anticorruption.uz/ru/xalqaro-hamkorlik>

12. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida 2021-yilgi milliy ma'ruza. <https://anticorruption.uz/storage/JpBf0mwDELlkEu06Uq6G9PgMv25RvRmetaNjI1MzFiMmM3MGNhZWE3MTYzNjA2MWY2Y2RiYzcyMGIwMjAzLnBkZg==-.pdf>

13. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida 2022-yilgi milliy ma'ruza. <https://aca.uz/storage/un97w9pipG6Y6JPidQIyMu35xEpefqmetabWlsbGl5IG1hcnV6YS4xX2NvbXBvZWNzZWQucGRm-.pdf>